

## TEXNOLOGIYA FANIDAN YANGI AVLOD O'QUV ADABIYOTLARINI

### YARATISH

O'rinova Durdona

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Eshmurodova Diyora

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Sayfullayeva Gulhayo

Ilmiy rahbar: Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

**Kalit so'zlar:** uslubiy qo'llanma, yangi davr, texnologiya, o'quv adabiyot, maktab, ta'lim

#### **Annotatsiya:**

Texnologiyadan o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, ularni tayyorlash borasidagi ilmiy-uslubiy, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal qilish, uzluksiz ta'lim tizimida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlariga erishishni ta'minlashga qaratilgan choralarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Texnologiyadan o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, ularni tayyorlash borasidagi ilmiy-uslubiy, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal qilish, uzluksiz ta'lim tizimida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlariga erishishni ta'minlashga qaratilgan choralarni ishlab chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning so'nggi yutuqlari, ilg'or xalqaro tajriba va taraqqiyot tendentsiyalari hisobga olinishi shart. Ushbu tadqiqot ishining asosiy vazifalariga texnologiya fani bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodi funktsiyalari va vazifalarini, ularni yaratishda qo'yiladigan ilmiy-g'oyaviy, uslubiy-didaktik, psixologik-pedagogik, sanitariya-gigienik talablarni ishlab chiqish, o'quv adabiyotlarining shakllari va turlariga aniq ta'riflar berish hamda mamlakatimiz miqyosida zamonaviy o'quv adabiyotlarini tayyorlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirish uchun strategik yo'nalishlarni belgilab olish kiradi.

Shular qatorida davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur.

Shuningdek, o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchi va domlarga e'tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor.

Takror aytishga to'g'ri keladi – ta'lim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning

zamonaviy usullarini o'zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg'or yutuqlar nafaqat maktab, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlariga, balki har qaysi oila hayotiga keng kirib borishi uchun zamin tug'dirishning ahamiyatini chuqur anglab olishimiz lozim.

Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar.

O'tgan yili mamlakatimiz hayotida haqiqatan ham ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim ijtimoiy dasturlar – Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining ijrosi amalda nihoyasiga yetkazildi.

Bir so'z bilan aytganda, farzandlarimizga umumiy ta'lim bilan birga zamonaviy kasb-hunarlariga ega bo'lish imkonini beradigan ta'lim tizimiga o'tish yakunlanmoqda.

Qator yillar davomida inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi haqida gapirganda, ularning avvalo eng muhim masalalarga – yangi ish o'rinlarini yaratish va aholimizning turmush darajasini yanada oshirishga yo'naltirilganini alohida qayd etish zarur.

Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

Shu kunlarda hukumatimiz tomonidan ushbu masala yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturi ana shu ezgu maqsadga erishish yo'lida, jami davlat va nodavlat manbalarini hisobga olgan holda, mavjud barcha resurs va imkoniyatlarimizni safarbar etishni ko'zda tutadi.

Texnologiyani predmet sifatida o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitishning maqsadlaridan biri sifatida ham, bilimlar sifatini oshirishning muhim faktori sifatida ham xizmat qiladi. Fizikani pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish faqatgina bilimga chaqqonlikni oshiribgina qolmay, shu bilan birga o'quvchilarning ma'naviy kuchlarini va qobiliyatlarini ham rivojlantirishga, ularda ilmiy dunyoqarashni, ijobiy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni shakllantirishga ham imkon beradi.

Texnologiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish ham albatta didaktik tamoyillarga tayanadi. Texnologiya pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish asosan "ko'rgazmali" bo'ladi, chunki uning manbai texnika ob'ektlari hisoblanadi. Shu tufayli, fizika o'qitishda politexnik tamoyilni ketma-ket amalga oshirish ko'rgazmalilik tamoyili vositalarini boyitish bilan birga fizikadan o'quv jihozlariga aniq talablar qo'yadi.

Texnologiyani o'rganish o'quvchilarning Texnologiyadan olgan oldingi bilimlarigagina tayanib qolmasdan, shu bilan birga ijtimoiy va tabiiy fanlardan olgan bilimlariga ham tayanadi.

Oliy ta'lim muassasalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida texnologiya fanini o'qitishda, ularning yo'nalishlari hisobga olingan holda, innovatsion pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy shaklda o'qitilishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan, ushbu magistrlik dissertatsiya ishida yuqoridagi maqsadga qisman bo'lsada erishishga yo'naltirilgan

Har qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish, xoxish istagiga ehtiyojiga qaratilmog'i kerak. Ya'ni ta'limni individuallashtirishga qaratilmog'i talab etiladi, endi ta'limni individuallashtirish nima? Degan savolga javob beraylik:

- ta'lim jarayonini individuallashtirish shunday o'qitish usuliki, bunda har bir o'quvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'quv biluv jarayoniga shaxsiy hissa qo'shishi hisobga olinadi;
- ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi;
- o'quv-metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda o'quvchi shaxsi o'quv biluv markazida bo'ladi.

Demak, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligi o'quvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil mutolaa bilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog'liq.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.I. Kamolova. "Ommabop texnologiya". Toshkent. Lider-Press nashriyoti. 2009.
2. I.R. Kamolov va boshqalar. "Quyosh sistemasining mayda jismlari". T. Yurist-Media nashriyoti. 2010 yil.
3. "Milliy ensiklopediya" Toshkent. 2004-yil 7-tom.
4. B.F. Izbosarov, O.R. Ochilov, I.R. Kamolov. «Texnologiyadan ma'lumotnoma». Navoiy. 2005-yil.
5. I. Sattorov. "Astrofizika". Fan va texnologiyalar. Toshkent, 2007-yil.
6. M. Mamadazimov. "Texnologiya". O'qituvchi. Toshkent. 2007-yil.
7. A.R. Sattorov, D.I. Kamolova. "Raqamli tasvirlar asosida Quyosh fizikasini o'qitish metodikasi". Pedagogik ta'lim. 2-son, 2009 yil, 26-28-betlar.
8. D.I. Kamolova. "Ommabop texnologiya". Lider-Press. Toshkent. 2009-yil.
9. I.R. Kamolov, A.R. Sattorov, D.I. Kamolova. "Texnologiya fanini o'qitishda Astronomik maydonchanning tutgan o'rni." Fizika, matematika va informatika jurnali. 4-son, 2009-yil, 71-72-betlar.
10. Тўйчиева, М. О., Солиев, Р. Х., Кахарова, М. А., & Маннонов, Ж. А. (2022). СТЕАТИТЛИ ЭЛЕКТРОКЕРАМИКА МАТЕРИАЛЛАРИНИ ОЛИШ УЧУН МАҲАЛЛИЙ ХОМАШЁЛАРИНИНГ КИМЁВИЙ ВА МИНЕРАЛОГИК ТАРКИБИ ВА ХОССАЛАРИНИ ЎРГАНИШ. Academic research in educational sciences, 3(4), 45-50.

11. Туляганова, В. С., Абдуллаева, Р. И., Негматов, С. С., Туйчиева, М. О. К., Шарипов, Ф. Ф., & Валиева, Г. Ф. (2021). Исследование процесса спекаемости электрокерамических композиций. *Universum: технические науки*, (10-4 (91)), 43-46.
12. Туляганова, В. С., Абдуллаева, Р. И., Туйчиева, М. О., Умирова, Н. О., & Аззамова, Ш. А. (2021). Разработка и исследование керамико-технологических и диэлектрических свойств композиционных электрокерамических материалов. *Universum: технические науки*, (8-2), 84-88.
13. Туляганова, В. С., Абдуллаева, Р. И., Туйчиева, М. О., Умирова, Н. О., & Аззамова, Ш. А. (2021). ПЕТРОГРАФИЧЕСКОЕ И РЕНТГЕНОГРАФИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КЕРАМИЧЕСКИХ КОМПОЗИЦИЙ НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО СЫРЬЯ. *Universum: технические науки*, (8-2), 79-83.
14. Туйчиева, М. (2018). ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА ВОДЫ. *Мировая наука*, (5), 388-391.
15. Kizi, T. M. O. (2021). Aluminum Oxychloride For Coagulation More Effective Coagulant For Water Purification. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research*, 3(05), 192-201.
16. Туйчиева, М. (2022). МЕТОДЫ И СРЕДСТВА КОНТРОЛЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КАЧЕСТВА ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ ЭНЕРГИИ. *PEDAGOGS journali*, 6(1), 429-433.